

Ilm ulug'laydi ayolni

O'tgan haftada Fanlar akademiyasi Xotin-qizlar Kengashi, Olima ayol uyushmasi hamkorlikda Fanlar akademiyasi tizimida faoliyat olib borayotgan olimalar bilan ilmiy muloqot tashkil etildi.



Ilmiy uchrashuvni Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti Shahlo Utkurovna o'tkazdi. Uchrashuvda Fanlar akademiyasining ilmiy tashkilotlarida faoliyat olib borayotgan ayol direktorlar, bo'lim boshliqlari, laboratoriya mudirlari, ilmiy xodimlari, fan doktorlari va o'z sohalarining yetakchi mutaxassislari ishtirok etdi. Har bir olimaga o'z soha kesimida taklif va mulohazalarini bildirdi.

Ilmiy muloqotda ilm-fanda ayollarning rolini oshirish, ularni qo'llab-quvvatlash, mavjud muammolarni o'rganish va hal etish yuzasidan takliflar bildirildi. Aniq yechimlar taklif etildi. Kelajakda amalga oshirilish

zarur bo'lgan istiqbolli rejalar tuzildi.

Suhbat so'ngida ushbu uchrashuv an'anaviy tarzda doimiy o'tkazlib turilishiga kelishib olindi. Aslida ayollarning ilm-fan yo'lida birlashishi, bir-biriga ko'mak va maslahat berishi, yosh qizlarni ilmga jalb etishlari mamlakat fani taraqqiyotiga xizmat qiladi. Olima ayollarning yangi loyihalariga dastlabki qadamdir ushbu uchrashuv.

P/S: Endilikda Fanlar akademiyasi olimalari erishayotgan yutuqlar, loyihalar va ilmiy yutuqlarni "Fan va ayol" rukni orqali berib boramiz.